

**МАКТАБГАЧА ЎОШДАГИ БОЛАЛАРНИ НУТQINI  
GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH**

**ФОРМИРОВАНИЕ ГРАММАТИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ РЕЧИ ДЕТЕЙ  
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА  
FORMING PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH GRAMMAR  
STRUCTURE**

**Xasanova Gulnoza Ilhom qizi**

**JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi**

**Soatmurodova Yulduz**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**ANNOTATSIYA:** Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning nutqini faol egallash davri hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagি bolalarni nutqini grammatik tuzilishini shakllantirish xaqida so'z borgan.

**KALIT SO'ZLAR:** o'zaro tushunish, to'g'ri idrok qilish, grammatical, sintaktik shakllari, topishmoq, ko'rgazmali amaliy tafakkur, badiiy shakli.

**ANNOUNCEMENT:** Preschool age is a period of active speech acquisition of children. This article discusses the formation of the grammatical structure of speech in preschool children.

**KEYWORDS:** mutual understanding, correct comprehension, grammatical, syntactic forms, riddles, visual practical thinking, artistic form.

**ОБЪЯВЛЕНИЕ:** Дошкольный возраст - период активного речевого овладения детьми. В статье рассматривается формирование грамматического строя речи у дошкольников.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** взаимопонимание, правильное понимание, грамматические, синтаксические формы, загадки, наглядное практическое мышление, художественная форма.

Mustaqil mamlakatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdek sharafli va ma'suliyatli ishda ta'lim tarbiya tizimining boshlang'ich tarbiya tizimining boshlang'ich bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim tarbiya muhim o'rinn tutadi. Nutq haqida so'z borar ekan, nutq bolaning ruxiy hayotida muhim axamiyatga egaligini ta'kidlashimiz lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning nutqini faol egallash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar nutqining rivojlanishi

ularning faoliyati muloqoti bilan uzviy bog'liq. Bolaning umumiy rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning og'zaki nutqi shunchalik yaxshi rivojlangan bo'ladi. A.V.Zaporojes nutqning umumiy tushunchasini ifodalab uning funksional yo'nalganligini ta'kidlagan holda "nutq fikrlar almashishga, o'zaro tushunishni amalga oshirishga hizmat qiladi", deydi. U nutqning sifat o'zgarishlarini, tafakkurning rivojlanishi, xususan, ko'rgazmali amaliy tafakkurdan mulohaza yurituvchi, mantiqiy tafakkurga o'tish bilan bog'laydi.

Bola tafakkuri xususiyatidagi o'zgarishlar uni til vositalarini tanlashga, so'zlar orqali o'z fikrlarini egallahsga, so'zlar orqali o'z fikrlarini ifodalashning yanada murakkab shakllariga, monologik nutqqa o'tishga undaydi.

Bu fikrni davom ettirib va rivojlantirib aytish mumkinki, bolaning og'zaki nutqi qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, u mактабда o'qiganida o'qish malaka va ko'nikmalarini shunchalik tezroq egallaydi.

Hozirgi pedagoglar, psixologlar, lingvistlar ilk bo'g'in – maktabgacha ta'limda bolaning ravon bog'lanishli nutqini o'stirish zarurligini ta'kidlaydilar, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning mактабда muvaffaqiyatli o'qishi uning og'zaki nutqi rivojlanganligi hamda umumiy rivojlanganligi bilan bog'liq.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar lug'at boyligini ilmiy - metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular maktabga kirish vaqtida amalda tilning grammatik va sintaktik shakllari tizimini egallagan bo'lishlariga qaramay, ularning nutqi yetuk bo'lmaydi. Bola lug'at zahirasining kambag'alligi faqatgina uning faol nutqida ko'pgina leksik - grammatik kategoriylar yo'qligidan emas, balki so'zlarni noto'g'ri qo'llash, ularning turli ma'nolarini hamda ko'chma ma'nolarini noto'g'ri tushunishdan iborat.

Shunday qilib, ko'chma ma'nolarda qo'llaniladigan so'zlar va ifodalarni tushunmaslik, ularning ma'nolarini to'g'ridan to'g'ri idrok qilish - noto'g'ri, ba'zan kulgili yoki ma'nosiz javoblarga olib keladi.

Shu bilan birga so'zning bir nechta ma'nosini farqlash qobiliyati, so'zning ko'chma ma'nolarini, til kinoyalarini va badiiy kinoyalarni tushunish ko'nikmasini maktabgacha yoshdagi bolalarda ham rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagি bolalar bog'lanishli nutqini rivojlantirishga, ularga ona tili hamda o'rganilayotgan tilning ifodalash imkoniyatlarini o'rgatishga topishmoqlar katta ta'sir ko'rsatadi. Bola topishmoqni yechish uchun tayyorlangan taqdirdagina shu topishmoqni to'liq idrok qiladi. Topishmoqni to'liq idrok etish uning mazmuni va badiiy shaklini diqqat bilan eshitib, qabul qilishdan iborat.

Bolaning ona tilini o'rganishiga yordam berayotib, eng avvalo nutqning benuqsonligiga intilgan holda tarbiyachilar bolalar nutqi yorqin, rang - barang, obrazli bo'lishiga hamda o'z xalqi til boyligini aks ettirishi haqida kam g'amxo'rlik qiladilar. Buning hammasi bog'lanishli nutqini o'stirishni o'rgatishni yengillashtiradi.

Bolalarining nutq madaniyati rivojlanishidagi kamchiliklar, ko'p jihatdan cheklanib qoladilar. Axir, o'tkir so'zlar, matallar, hazil - mutoyibalar, qiziqchilik, qo'shiq, ertakdagi yorqin obraz, qiziqarli topishmoq bolalar bog'lanishli nutqini boyitadi, tafakkurini, she'rlar tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, ona tiliga, keyinroq esa o'rganilayotgan tilga muhabbatni, uning go'zalligini his qilish qobiliyatini tarbiyalaydi. Tarbiyachilar yirik folklorshunoslar M.Alaviya, M.I.Afzalov, Z.Xusainova T.Mirzayev va boshqalar tomonidan to'plangan materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega. Masala faqat shundaki, ushbu to'plamlardan eng yaxshilarini va bolalar tushunishi osonlarini ajratish lozim.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bolaning so'z-lug'at boyligining o'sishida ikki muhim tomoni miqdor va sifat tomoni mavjud. Bolalar to'g'ri tarbiyalanib borganlarida, ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshiga yetganlarida, ularda tilning grammatika shakllarini amaliy ravishda egallash juda tez qadam bilan olg'a qarab boradi. Shu yoshda bolalar murakkab gap sintaksisini ham egallab oladilar. Bolaning nutqida bir-biri bilan bog'langan qo'shma gaplar paydo bo'ladi. Bolalarining nutqida sodda gap, bosh gap, ergash gap va hokazolar aniq ko'rina boshlaydi. Ularning nutqlarida murakkab gaplar ishlataladi. Bu gaplarda biror sabab, maqsad, xulosa, izoh, shart va shu kabilar aks ettirila

boshlaydi. Nutqning tuzilishidagi bu murakkab shakllar tafakkurning murakkabroq shakllari o'sib borishiga bog'liqdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Хамраева, Е. (2021). Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish yo`llari. *Мактабгача таълим журнали*, 3 (журнал дошкольного образования). Получено с <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3904>.
- 2.Олий таълим муассасалари педагогарининг креатив кобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021
- 3.Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.
- 4.Theoretical bases of upbringing of preschool children in the national spirit in the organizations of preschool education SJ Sodirovich International Journal on Orange Technologies (IJOT) 2 (4), 245-247
- 5.Charos Islomovna Berkinova (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog tarbiyachining nutqiy faoliyatini o'ziga xosligi. Academic research in educational sciences, 2 (10), 771-775.
- 6.Berkinova, Ch (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim faoliyatini to'g'ri tashkil etishning mazmuni. *Мактабгача таълим журнали*.
- 7.Berkinova, Ch. (2021). Musiqa fanining mavzularini o'qitishda muammoli ta'lim metodlari: musiqa fanining mavzularini o'qitishda muammoli ta'lim metodlari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
- 8.Berkinova, Ch. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogika tushunchasi. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
- 9.Xamidova, G. (2020). Pedagogical-psychological basis for the development of creative and intellectual abilities of children of preschool age. Архив Научных Публикаций JSPI.

- 10.Xamidova, G. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik histuyg'ularini tarbiyalash orqali san'atni tushunishga o'rgatish. Academic research in educational sciences, 2(5), 1203-1207.
- 11.Hamrayeva, A. (2021). Педагог тарбиячиларда компетентликни ривожлантириш. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
- 12.Farxadovna, X. A. (2021). Development of professional competence of the future pedagogical teacher. *European Journal of Molecular&Clinical Medicine*, 8(1), 619-627.
- 13.Xamrayeva, A. F. (2021). Oliy ta'lif muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni. *Academic researchin educational sciences*, 2(10), 1087-1091.
- 14.Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning matab ta'lifiga axloqiy tayyorgarligining mezoni  
M.Norquziyeva - Мактабгача таълим журнали, 2021
- 15.The current state of the problem of the formation of stability in the teaching profession  
M.Norkuzieva - Mental Enlightenment Scientific-Methodological ..., 2021
- 16.Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигига таъсир этувчи деформацияларнинг олдини олиш технологияси  
М.А.Норқўзиева - Academic research in educational sciences, 2021
- 17.Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашнинг педагогик-психологик жиҳатлари  
М.А.Норкузиева - Academic research in educational sciences, 2021
- 18.Xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: xalq og'zaki ijodi asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash  
М Norquziyeva - Журнал дошкольного образования, 2021